

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

BAYMURATOV ISMAXMUD ALIYEVICH

**PARASUZUVCHILAR KO'P YILLIK TAYYORGARLIK TIZIMINI
OPTIMALLASHTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI**

**13.00.04- Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Baymurotov Ismaxmud Aliyevich

Parasuzuvchilar ko‘p yillik tayyorgarlik tizimini optimallashtirishning
nazariy va uslubiy asoslari3

Баймуратов Исмахмуд Алиевич

Теоретические и методологические основы оптимизации системы
многoletней подготовки пловцов-паралимпийцев29

Baymurotov Ismaxmud Aliyevich

Theoretical and methodological foundations for optimizing the long-term training
system for paraswimmers55

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....60

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

BAYMURATOV ISMAXMUD ALIYEVICH

**PARASUZUVCHILAR KO'P YILLIK TAYYORGARLIK TIZIMINI
OPTIMALLASHTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI**

**13.00.04- Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.Phd/Ped10444 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzdjtsu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Matnazarov Xayrulla Yuldashovich**
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Taqrizchilar: **Allamuratov Shuxratulla Inoyatovich**
biologiya fanlari doktori, professor
Sobirova Laylo Baxramovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tdi. Manzil: 111709, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Yangi O‘zbekiston ko‘chasi, Olimpiya shaharchasi. Tel.: (0-370)-717-17-19, 717-27-27, faks: (0-370)-717-17-76, Veb-sayt: www.djtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat sport akademiyasi “Ma’muriy” bino 1-qavat, 146-xona).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17-19, 717-27-27, faks: (0-370)-717-17-76.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “___” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

F.A.Kerimov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

D.Y.Egamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.b.f.d. (PhD)

O.J.Dadabayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda tug‘ma yoki orttirilgan nogironlik holatlarining ortib borishi sog‘liqni saqlash, ijtimoiy integratsiya va ta‘lim sohalarida murakkab masalalarni yuzaga keltirmoqda, bu esa nogironligi bo‘lgan shaxslarning yo‘qotilgan funksional imkoniyatlarini tiklash, jismoniy faolligini oshirish va ularni jamiyat hayotiga faol jalb etish bo‘yicha tizimli choralarni talab qilmoqda. Ayniqsa, jismoniy tarbiya va sport vositalari orqali nogironligi bo‘lgan shaxslarni sog‘lomlashtirish, jamiyatga ijtimoiylashuvini ta‘minlash va psixologik reabilitatsiya qilish masalalari muhim vosita sifatida e‘tirof etilmoqda. Rivojlangan davlatlar tomonidan nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning sport orqali hayotga bo‘lgan qiziqishini oshirish va mehnat bozoriga qayta integratsiya qilish milliy siyosat darajasida hal etilayotgan ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Parasport, xususan parasuzish sportining so‘nggi yillardagi rivojlanish sura‘tlari va Paralimpiya o‘yinlaridagi yuksak natijalar sport fanida chuqur tahlil va innovatsion yondashuvlar asosida mashg‘ulot jarayonlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Dunyoda zamonaviy ilmi parasuzuvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan mashg‘ulotlarni modellashtirish usullarini, shuningdek, ularning jismoniy, psixologik va ijtimoiy imkoniyatlarini har tomonlama baholaydigan monitoring tizimlarini ishlab chiqishga shoshilinch ehtiyoj sezmoqda. Texnologik vositalarni, masalan, suv osti monitoring tizimlari, raqamli harakat tahlili usullari va moslashtirilgan reabilitatsiya dasturlarini mashg‘ulotlarga integratsiya qilish nogiron sportchilarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. Paralimpiya sportchilarining yutuqlari nafaqat sport usullarining samaradorligini namoyish etadi, balki nogironlarning ijtimoiy mavqei yaxshilanganligining muhim ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun parasuzish nafaqat nogironlarning sog‘lig‘ini yaxshilash vositasi, balki o‘ziga ishonch, iroda va hayotga ijobiy nuqtai nazarni rivojlantirish uchun kuchli ta‘lim vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Aynan shular parasuzuvchilarning tayyorgarlik tizimini takomillashtirish, ilmiy asoslangan metodik yondashuvlar ishlab chiqish va mashg‘ulot strategiyasini zamon talablariga moslashtirish orqali sport natijalarini yanada oshirish imkonini beradi.

Respublikamizda olimlar va mutaxassislar tomonidan parasuzuvchilar tayyorgarligini ularning nogironlik toifalariga qarab tashkil etish, har bir toifaning funksional imkoniyatlaridan kelib chiqib sportchilarga individual yondashuv asosida mashg‘ulotlarni rejalashtirishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. “Oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta‘minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda¹” Parasuzuvchilarning ko‘p

¹ “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Prezident farmoni. “Sport” gazetasi 2020 yil 28 yanvardagi 04-soni (7611)

yillik tayyorgarlik jarayonida ularning holatini tizimli va kompleks monitoring qilish, mashg'ulot bosqichlarida sportchilarning holatiga mos keluvchi ilmiy asoslangan nazorat me'yorlarini ishlab chiqish va mashg'ulot tizimiga integratsiya qilish masalari hali yetarlicha ilmiy asoslanmagan². Tayyorgarlikning har bir bosqichida vazifalarga mos tarzda tayyorgarlik shakllarini qo'llash, sportchilarning funksional va psixofiziologik holatini moslashtirish va ularning natijadorlik darajasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashga doir tadqiqotlar yetarli darajada o'rganilmagan. Parasuzuvchilar ko'p yillik tayyorgarlik jarayonida sportchilar holatini kompleks nazorat qilish, ilmiy asoslangan nazorat me'yorlarini tayyorgarlik jarayoniga tadbiiq qilish, quruqlikdagi va suvdagi mashqlarni tayyorgarlik vazifalaridan kelib chiqqan holda qo'llash nisbatlari, parasuzuvchilarga tayyorgarlikning har xil bosqichlarida mashg'ulot yuklamalarini muvofiqlashtirish va uni individuallashtirish hamda sportchilar tayyorgarligini tayyorgarlik bosqichlari vazifalaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning yetarli emasligi dissertatsiya ishining dolzarbligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-noyabrdagi PQ-382-son "Suv sporti turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 18-maydagi PQ-5114-son "Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5279-son "Sport ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yana-da oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5280-son "Sport ta'lim muassasalari faoliyatini 2025-yilgacha rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi Qarorlarida, 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli "Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning. I "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" bilan bog'liq ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Suzish bo'yicha maxsus adabiyotlarni tahlili parasuzuvchilar tayyorgarlik jarayonini tashkil qilish va o'tkazish, mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish, ko'p yillik tayyorgarlik tizimida tayyorgarlik vosita va uslublaridan oqilona foydalanish, parasuzuvchilarni, jumladan "S"-9 bilan belgilangan toifa batterflyay, chalqancha, ko'krakda krol va erkin usullarida suzadi "SM"-9 bilan belgilangan toifa esa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadi va "S"-10 bilan belgilangan toifa batterflyay, chalqancha, ko'krakda krol va erkin usullarida suzadi "SM"-10 bilan

² "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Prezident farmoni. "Sport" gazetasi 2020 yil 28 yanvardagi 04-soni (7611)

belgilangan toifa esa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadigan sportchilarni asosiy musobaqalarga samarali tayyorlash va iqtidorli sportchilarni aniqlash, saralash va yo‘naltirish bo‘yicha ma‘lumotlar yetarli emasligini ko‘rsatdi. Xususan, mahalliy mutaxassislar Sh.A.Abdiyev, L.Davlatova, M.X.Mirjamalovlarning³ ilmiy ishlarida parasport tarlari va bu sport turlarida sportchilar tayyorgarligini tashkil qilish bo‘yicha, A.G.Sadikov X.Y.Matnazarov, G.M.Zoitova, B.A.Ishimov⁴ kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida suzish sportida sportchilarning ko‘p yillik tayyorgarligini tashkil qilish, saralash va yo‘naltirish hamda sportchilarni tayyorlash bosqichlarida mashg‘ulot vosita va uslublarini qo‘llash, suzuvchilarning umumiy tayyorgarligini, jismoniy sifatlarini rivojlantirish va yangi shug‘ullanuvchilarga mashg‘ulot mashg‘ulotlarini tashkil qilishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi doirasida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi, jumladan suzish sporti bo‘yicha yetakchi olimlaridan Bulgakova.N.J., Voronsov.A.R., Voronsov.A.R., Timakova.T.S., Makarenko.L.P., Chebotareva.I.V., Lyannoy.M.O., Nikitushkin.V.G., Avdienko.V.N., Solopov.I.N.⁵ suzuvchilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish, rejalashtirish, saralash ishlarini tashkil qilish, sportchilar tayyorlash tizimini optimallashtirish, jismoniy ish qobiliyatni oshirish, sportchilar jismoniy sifatlarini rivojlantirish hamda sportchilarning funksional, fiziologik va psixologik holatini takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Suzish sportida yuqori natijalarga erishgan Amerika Qo‘shma Shtatlari, Avstraliya, Janubiy Afrika Respublikasi kabi uzoq chet el va Yevropa mamlakatlarida soha olimlari Gennadius Sokolovas, Luca Puce, Manuel Rodriguez Macias tomonidan

2 Abdiev.Sh.A. Tayanch-harakat apparati shikastlangan yuqori malakali uloqtiruvchilarning sport mashg‘ulotlarini optimallashtirish Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref.- Chirchiq O‘zDJTSU, 2022.-62 b.; Davlatova.L.T. Imkoniyati cheklangan talabalarni paravoleybolga o‘rgatishda maxsus harakat imkoniyatlarini oshirish uslubiyati. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref.- Chirchiq, O‘zDJTSU, 2023. – 60 b.; Mirjamalov.M.X. Oliy ta‘limda paralimpiya bo‘yicha sportchilar tayyorlash tizimini pedagogik nazorat qilishning ilmiy metodik asoslari. Avtoref. diss. ped. fan. dok. – Chirchiq 2024. – 36 b.

³ A.G.Sadikov Yosh suzuvchilarning tayyorgarlik bosqichlaridagi mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish T.: “Fan va texnologiya” 2015.-B.45-48.; Matnazarov.X.Y. Yosh suzuvchilarni dastlabki ixtisoslik bosqichida saralash uslubiyatini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref.- Chirchiq, O‘zDJTSU, 2021.-59 b., Zoitova.G.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarga suzish usullarini o‘rgatishning modul tuzilishi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref.- Chirchiq O‘zDJTSU, 2022.-60 b., Ishimov.B.A. 13-14 Yoshli brass usulida suzuvchilarning kuch tayyorgarligini rivojlantirish samaradorligi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref.- Chirchiq O‘zDJTSU, 2022.-62 b.

⁵ Булгакова.Н.Ж., Воронцов.А.Р. Возрастная динамика морфологических, силовых и функциональных показателей, лимитирующих спортивные достижения мальчиков 11-18 лет // Теория и практика физ.культуры. 1980. - №12. - С.32-35, Воронцов.А.Р. Нормативные требования для отбора перспективных пловцов // Плавание. 1984. - №1. - С.21-23., Тимакова.Т.С. Многолетняя подготовка пловца и ее индивидуализация (биологические аспекты). М.: Физкультура и спорт, 1985. –С. 144.; Макаренко.Л.П., Построение спортивной тренировки высококвалифицированных пловцов: Методическая разработка для слушателей ВШТ. М., 1992. –С. 52.; Чеботарева.И.В. Учет возрастных и индивидуальных особенностей детей в работе ДЮСШ по плаванию: Методическая разработка для слушателей факультета повышения квалификации. М.: РГАФК, 1993. – С. 22.; Лянной.М.О. Физическая реабилитация старшеклассников-инвалидов с последствиями детского церебрального паралича в поздней резидуальной стадии. Автореф. к. пед. наук. – Малаховка, 2003. – С. 24.; Никитушкин.В.Г. «Спорт высших достижений: теория и методика» Учебное пособие. Изд. Спорт, 2017. - 397 с.; Авdienko.В.Н., Солопов.И.Н. Управление тренировкой пловца: монография. Вологодград, 2023, - С. 696

ko'plab izlanishlar olib borilgan⁶.

Yuqorida olib borilgan tadqiqotlarda aynan S9 va SM9 hamda S10 va SM10 to'yifasidagi parasuzuvchilar mashg'ulot jarayonlarini tashkil qilish yuqori malakali parasuzuvchilarni tayyorlashning ilimiy-uslubiy jihatlari to'liq ochib berilmagan.

Dissertatsiya tadqiqoti bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutining 2023-2025-yilda amalga oshirish rejalashtirilgan ALM202306161314 "Paralimpiya sport musobaqalariga zahira sportchilar tayyorlash uchun kinematik va psixofiziologik tavsiflari bo'yicha saralash tizimini ishlab chiqish" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi parasuzuvchilar musobaqa tasnifini inobatga olgan holda ularning ko'p yillik tayyorgarlik tizimini optimallashtirishning nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

parasuzuvchilar ko'p yillik tayyorgarlik jarayonida sport tayyorgarligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash ularni tasniflash asosida "S"-9 va "S"-10 batterflyay, chalqancha krol va erkin usullarida suzuvchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonida jismoniy va funksional imkoniyatlarini oshirish;

parasuzuvchilar texnik tayyorgarligini takomillashtirishda o'quv-mashq bosqichidagi "SM"-9 va "SM"-10 kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadigan parasuzuvchilarning sport natijalariga erishish imkoniyatlarini kengaytirish;

boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi "S"-9 va "S"-10 batterflyay, chalqancha va erkin usullarida suzuvchilarning texnik harakatlarini takomillashtirishda parasuzuvchilarning o'quv-mashg'ulotlarida tayyorgarlik dasturini ishlab chiqish hisobiga sportchilar sport natijalarini yaxshilash;

parasuzuvchilar texnik tayyorgarligini takomillashtirishda kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadigan parasuzuvchilarni kompleks tayyorlash uslubiyatini takomillashtirish.

Tadqiqotning obykti sifatida Nukus olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi, Urganch olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi, Nukus suv sporti turlariga ixtisoslashgan sport maktabi, Olmazor tumani sport maktabida shug'ullanuvchi "S"-9 toifasidagi batterflyay, chalqancha, ko'krakda krol va erkin usullarida suzuvchilar, "SM"-9 toifasidagi kompleks usulda suzuvchilar hamda "S"-10 toifasidagi batterflyay, chalqancha, ko'krakda krol va erkin usullarida suzuvchilar, "SM"-10 toifasidagi kompleks usulda suzuvchilar mashg'ulot jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida "S"-9 bilan belgilangan toifa batterflyay, chalqancha, ko'krakda krolva erkin usullarida suzuvchilar, "SM"-9 bilan belgilangan toifa kompleks usulda suzuvchilar hamda "S"-10 bilan belgilangan

⁶ Sokolovas.G. Scientific system "Talant id". Scientific aids, USA 2020.-P.43.; Luca Puce Scoping Review with Bibliometric Analysis of Para-Rowing: State of the Art and Future Directions. MDPI Healthcare, 11. 2023.; Manuel Rodriguez Macias The Sport Training Process of Para-Athletes: A Systematic Review, National Center for Biotechnology Information.

toifa butterflyay, chalqancha, ko'krakda krol va erkin usullarida suzuvchilar "SM"-10 bilan belgilangan toifa kompleks usulda suzuvchilar mashg'ulot dasturini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy uslubiy adabiyotlarni tahlili, pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba, anketa so'rovnomasi, antropometriya uslubi, pedagogik testlar, spirometriya, yurak qisqarish sonini o'lchash uslubi, jismoniy sifatlarni testlash uslubi, matematik statistik uslublaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat.

parasuzuvchilar jismoniy sifat darajalarini rivojlantirishda ko'p yillik tayyorgarlik jarayonida sport tayyorgarligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni tasniflash asosida "S"-9 va "S"-10 butterflyay, chalqancha, ko'krakda krol va erkin usullarida suzuvchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonida kompleks mashg'ulotlarni qo'llash hisobiga musobaqalarda ishtirok etadigan parasuzuvchilar jismoniy va funksional imkoniyatlari oshirilgan;

parasuzuvchilar texnik tayyorgarligini takomillashtirishda o'quv-mashq bosqichidagi "SM"-9 va "SM"-10 kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadigan parasuzuvchilar tayyorgarlik jarayoniga idividuallashtirilgan tortuvchi, rivojlantiruvchi, zarbdor, musobaqa mikrosikllarini tayyorgarlik holati bo'yicha korreksiya qilish hisobiga sportchilar sport natijalariga erishish imkoniyati kengaytirilgan;

boshlang'ich tayyorgarlik va o'quv-mashq bosqichida shug'ullanuvchi "S"-9 va "S"-10 butterflyay, chalqancha, ko'krakda krol va erkin usullarida parasuzuvchilarning texnik harakatlarini takomillashtirish uchun tayyorgarlik dasturini har bir shiddat zonasi bo'yicha mashg'ulot jarayoniga tadbiq qilish hisobiga sportchilar sport natijalarini o'sish imkoniyati kengaytirilgan;

parasuzuvchilar texnik tayyorgarligini takomillashtirishda "SM"-9 va "SM"-10 kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadigan parasuzuvchilar mashg'ulot ta'sirining yo'nalishiga ko'ra haftalik mikrosikllarni tuzishni sport razryadlarini bajarish va ushlab turish yuklamasini belgilab berish hisobiga kompleks tayyorlash uslubiyati takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat.

"S"-9 bilan belgilangan toifa butterflyay, chalqancha, ko'krakda krol va erkin usullarida suzadi "SM"-9 bilan belgilangan toifa esa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadi va "S"-10 bilan belgilangan toifa butterflyay, chalqancha, ko'krakda krol va erkin usullarida suzadi "SM"-10 bilan belgilangan toifa esa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadigan parasuzuvchilar yillik tayyorgarlik siklining tayyorgarlik davri uchun moslashtirilgan tayyorgarlik dasturi ishlab chiqilgan va mashg'ulot jarayonida qo'llanilgan;

"S"-9 bilan belgilangan toifa butterflyay, chalqancha, ko'krakda krol va erkin usullarida suzadi "SM"-9 bilan belgilangan toifa esa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadi va "S"-10 bilan belgilangan toifa butterflyay, chalqancha, ko'krakda krol va erkin usullarida suzadi "SM"-10 bilan belgilangan toifa esa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadigan parasuzuvchilar jismoniy sifatlarni majmuali rivojlantirishga yo'naltirilgan

maxsus mashqlar majmuasi ishlab chiqilgan;

boshlang'ich tayyorgarlik va o'quv-mashq guruhlarida shug'ullanuvchi "S"-9 bilan belgilangan toifa batterflyay, chalqancha, ko'krakda krol va erkin usullarida suzadi "SM"-9 bilan belgilangan toifa esa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadi va "S"-10 bilan belgilangan toifa batterflyay, chalqancha, ko'krakda kro lva erkin usullarida suzadi "SM"-10 bilan belgilangan toifa esa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadigan parasuzuvchilar uchun tabaqalashtirilgan jismoniy yuklamalar nisbatlari ishlab chiqilgan hamda yuqori sport formasiga erishish va uni ushlab turish uchun shiddat zonalarida yuklamalarni bajarish dasturi mashg'ulot jarayoniga tadbiiq qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi bilish nazariyasi uslubiyati (dialektik bilish uslubi) hamda mamlakatimizdagi va xorijiy mamlakatlarning, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport nazariyasi amaliyoti sohasida xizmat ko'rsatgan amaliyotchi murabiylarning ilmiy qarashlari bilan asoslangan holda, bir-birini o'zaro to'ldiradigan, tadqiqotning vazifalariga mos keladigan tadqiqot uslublarining qo'llanilganligi, tadqiqot natijalarining sifat jihatdan ta'minlanganligi, tadqiqot ishlari va sinovlarining oshkoraligi, tadqiqot natijalariga ishlov berishda matematik statistika uslublarining qo'llanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, mashg'ulotlar mashg'ulot yuklamalarini me'yorlashtirish va aniq matematik modellardan foydalangan holda "S"-9 bilan belgilangan toifa batterflyay, chalqancha, ko'krakda krol va erkin usullarida suzadi "SM"-9 bilan belgilangan toifa esa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadi va "S"-10 bilan belgilangan toifa batterflyay, chalqancha, ko'krakda krol va erkin usullarida suzadi "SM"-10 bilan belgilangan toifa esa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadigan parasuzuvchilar mashg'ulot mashg'ulotlariga modifikatsiyalangan zarbdor va tortuvchi mikrosikllarni tadbiiq qilish, jismoniy va funksional tayyorgarligini rivojlantirish uchun maxsus mashqlar majmuasini ishlab chiqish, uning samaradorligini tajribada isbotlash hamda yosh suzuvchilarning jismoniy holati, antropometrik ko'rsatkichlari, funksional holati, texnik tayyorgarligi va boshqa xususiyatlarini inobatga olgan holda innovasion metodni ishlab chiqish maqsadga muvofiqligi bilan belgilanadi;

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, mashg'ulotlar yuklamalarini me'yorlashtirish va aniq modellardan foydalangan holda "S"-9 bilan belgilangan toifa batterflyay, chalqancha, ko'krakda krol va erkin usullarida suzadi "SM"-9 bilan belgilangan toifa esa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadi va "S"-10 bilan belgilangan toifa batterflyay, chalqancha, ko'krakda krol va erkin usullarida suzadi "SM"-10 bilan belgilangan toifa esa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadigan parasuzuvchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish asosida tayyorgarlik tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy metodikani samarali qo'llash natijasida shug'ullanuvchilar maxsus moslashtirilgan mashqlardan foydalanish asosida sport natijalarini yaxshilash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Parasuzuvchilarni texnik usullariga

o'rgatish jarayonlarini optimallashtirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish orqali mashg'ulot jarayonlarini optimallashtirish bo'yicha tadqiqotlar davomida olingan ilmiy natijalar asosida:

parasuzuvchilar ko'p yillik tayyorgarlik tizimini optimallashtirishning nazariy va uslubiy asoslari ("S"-9 bilan belgilangan toifa batterflyay, chalqancha, ko'krakda krol va erkin usullarida suzuvchilar, "SM"-9 bilan belgilangan toifa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etuvchi suzuvchilar hamda "S"-10 bilan belgilangan toifa batterflyay, chalqancha, ko'krakda krol va erkin usullarida suzuvchilar, "SM"-10 bilan belgilangan toifa esa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadigan suzuvchilar misolida) bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida parasuzuvchilarga amaliy tavsiyalar Nukus suv sporti turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi o'quv-mashg'ulotlariga tatbiq etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi sport vazirligining 2025 yil 30-maydagi 01-09/3204-son ma'lumotnomasi). Natijada 2024-2025 o'quv yilida o'quv mashq guruhi S/SM-9, S/SM-10 toifasidagi parasuzuvchilar yillik yuklama hajmining yo'nalishlar bo'yicha nisbatlari optimallashtirildi va buning natijasida sport natijalarining sezilarli yaxshilanishiga erishilgan;

o'quv-mashq bosqichidagi "S"-9 bilan belgilangan toifa batterflyay, chalqancha, ko'krakda krol va erkin usullarida suzuvchi, "SM"-9 bilan belgilangan toifa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etuvchi hamda "S"-10 bilan belgilangan toifa batterflyay, chalqancha, ko'krakda krol va erkin usullarida suzuvchi, "SM"-10 bilan belgilangan toifa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadigan parasuzuvchilar tayyorgarlik jarayoniga tayyorgarlikning samarali vositalari - tortuvchi, rivojlantiruvchi, zarbdor, musobaqa mikrosikllarini korreksiya qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar Urganch Olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha sportchilarni tayyorlash markazi parasuzuvchilar mashg'ulot jarayoniga tatbiq qilingan. (Qoraqalpog'iston Respublikasi sport vazirligining 2025 yil 30 maydagi 01-09/3204-son ma'lumotnomasi). Natijada psixomotor rivojlanishi baholash uslubiyatini amalga oshirishda musobaqa ishonchlilik profili individual hamda bir guruh sportchilar uchun tuzildi va yillik sikl mobaynida sportchi individual ko'rsatkichlarining profildan farqiga qarab mashg'ulot jarayoni korreksiya qilish imkonini bergan;

boshlang'ich tayyorgarlik va o'quv-mashq bosqichida shug'ullanuvchi "S"-9 bilan belgilangan toifa batterflyay, chalqancha, ko'krakda krol va erkin usullarida suzuvchi, "SM"-9 bilan belgilangan toifa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etuvchi hamda "S"-10 bilan belgilangan toifa batterflyay, chalqancha, ko'krakda krol va erkin usullarida suzuvchi, "SM"-10 bilan belgilangan toifa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadigan parasuzuvchilar tayyorgarlik dasturini mashg'ulot jarayoniga tatbiq qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar Toshkent shahri Olmazor tumanidagi sport maktabida parasuzuvchilar mashg'ulot jarayoniga tatbiq qilingan. (Qoraqalpog'iston Respublikasi sport vazirligining 2025 yil 30 maydagi 01-09/3204-son ma'lumotnomasi). Natijada, 2024-2025 o'quv yilida boshlang'ich tayyorgarlik guruhida shug'ullanuvchi S/SM-9, S/SM-10 toifasidagi parasuzuvchilar 50 m ga erkin usulda suzush natijalari o'rtacha 8,1% ga, S/SM-10 toifasidagi

parasuzuvchilar 50 m ga erkin usilda suzush natijalari 9,4 % ga yaxshilangan;

sportchilar tayyorgarlik jarayoniga yangilangan dastur va vositalarni kiritish hisobiga “S”-9 bilan belgilangan toifa batterflyay, chalqancha, ko‘krakda krol va erkin usullarida suzuvchi, “SM”-9 bilan belgilangan toifa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etuvchi hamda “S”-10 bilan belgilangan toifa batterflyay, chalqancha, ko‘krakda krol va erkin usullarida suzuvchi, “SM”-10 bilan belgilangan toifa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadigan parasuzuvchilarni har tomonlama kompleks tayyorlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar Nukus olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazida parasuzuvchilarga mashg‘ulot jarayoniga tatbiq qilingan. (Qoraqalpog‘iston Respublikasi sport vazirligining 2025 yil 30 maydagi 01-09/3204-son ma‘lumotnomasi). Natijada 2024-2025 o‘quv yilida o‘quv mashq guruhida shug‘ullanuvchi S/SM-9 toifasidagi parasuzuvchilar 50 m ga suzish ko‘rsatkichi 10,1% ga, 100 m ga suzish ko‘rsatkichi 4,7 % ga yaxshilangan bo‘lsa S/SM-10 toifasidagi parasuzuvchilar 50 m ga suzish ko‘rsatkichi 7,6% ga, 100 m ga suzish ko‘rsatkichi 6,9 % ga yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 4 ta Respublika miqyosida ilmiy-amaliy anjumanda va O‘zbekiston suzish federatsiyasi Qoraqalpog‘iston filiali va Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malaka oshirish instituti Nukus filialida o‘tkazilgan trenerlar seminarlarda aprobatsiyadan o‘tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida 3 ta maqola (2 ta Respublika va 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarda) chop etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi mundarija, kirish, to‘rtta bobdan iborat bo‘lib, 130 bet, 18 ta rasm, 23 ta jadval, xulosalar, amaliy tavsiyalar, adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan.

DISSYERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va uning zarurati, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, tadqiqotdan olingan natijalarining ishonchligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati hamda ularning joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida batafsil ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Parasuzish klassifikatsiyasi va parasuzuvchilarni tayyorlashning uslubiy asoslari”** deb nomlanadi. Mazkur bobda ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, parasuzuvchilar jismoniy

rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini aniqlash uchun nazorat mashqlaridan foydalanish xususiyatlari, parasuzuvchilar ko‘p yillik tayyorgarligini tashkil qilish muammosiga zamonaviy qarashlar, parasuzuvchilar tayyorgarligini tashkil qilish va boshqarishning vosita va uslublari, “S”-9 bilan belgilangan toifa batterflyay, chalqancha, ko‘krakda krol va erkin usullarida suzadi “SM”-9 bilan belgilangan toifa esa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadi va “S”-10 bilan belgilangan toifa batterflyay, chalqancha, ko‘krakda krol va erkin usullarida suzadi “SM”-10 bilan belgilangan toifa esa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadigan parasuzuvchilar jismoniy tayyorgarligini tashkil qilish jarayonlari tahlili berilgan. Ushbu bob mazmunida parasuzuvchilarning ko‘p yillik sport tayyorgarligi tizimining uslubiy holati va sportchilar tayyorgarligining asosiy vazifalari va mezonlari to‘g‘risidagi mavjud ma’lumotlar tavsiflanadi. Ham mahalliy, ham xorijiy mualliflarning ko‘plab tadqiqotlari tayyorgarlikni tashkil qilish bo‘yicha masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, (Mirjamalov.M.X., Abdiyev.Sh.A, Davlatova.L., Sadikov.A.G., Matnazarov.X.Y., Zoitova.G.M., Ishimov.B.A., Nikitushkin.V.G., Lyannoy.M.O., Bulgakova.N.J., Voronsov.A.R., Makarenko.L.P., Timakova.T.S., Chebotareva.I.V., Avdiyenko.V.B., Solopov.I.N.) ularning katta qismi suzish va parasuzish bo‘yicha har xil malakali sportchilarda sinalgan. Bunda sport maktablari uchun amaldagi dastur faqat harakat ko‘nikmalarni shakllantirish va takomillashtirish usullarining umumiy tavsifi bilan cheklanib qolgan. Asosiy tayyorgarlik bosqichlarida parasuzish texnikasining vaqtinchalik va dinamik xususiyatlarini hisobga olgan holda kuch mashqlari tuzilishini har tomonlama baholash zarurati, parasuzuvchilar ko‘p yillik yattorgarlik tizimining yaxlit o‘rganilmaganligi ushbu masalaning nazariyasi va metodologiyasida yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.




1-rasm. S/SM9 toifasidagi parasuzuvchilar jarohatlanish darajasi.

S/SM9 toifasi. Bu toifadagi sportchilarda oyoq amputatsiyasi, bir oyoq ishlamaydigan post-poliomiyelit sindromi, qo‘l amputatsiyasi va shu kabi boshqa

shikastlanish bo‘lishi mumkin. Bu toifadagi parasuzuvchilar 50, 100, 400 m ga erkin usulda suzish, 100 m ga chalqancha usulda suzish, 100 m ga batterflyay usulida suzish va 200 m ga kompleks usulda suzish musobaqalarida qatnashishi mumkin (1-rasmga qarang).

S/SM10 toifasi. S/SM10 toifasi Paralimpiya o‘yinlarida ishtirok etish uchun minimal talablarga mos keluvchi, minimal jismoniy yetishmovchilikka ega sportchilar uchun mo‘ljallangan. Bu toifadagi suzuvchilar 50, 100 va 400 m ga erkin usulda suzish, 100 m chalqancha usulda suzish, 100 m batterflyay usulida suzish va 200 m kompleks usulda suzish dasturlarida musobaqada qatnashishlari mumkin (2-rasmga qarang).



2-rasm. S/SM10 toifasidagi parasuzuvchilar jarohatlanish darajasi.

Qiyosiy tahlillar natijasida, hozirgi vaqtda parasuzuvchilar ko‘p yillik tayyorgarligini tashkil qilishda qo‘llanilayotgan texnologiyalar standart usullardan iborat bo‘lib, parasuzuvchilarning jismoniy sifatlarini va suvdagi texnik tayyorgarligini takomillashtirishda faqatgina suvdagi yoki quruqlikdagi mashqlardan foydalangan holda amalga oshirish tayyorgarlik vazifalarini to‘liq hal qilish imkonini bermasligi, mazkur yo‘nalish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli emasligi va tadqiqot predmeti sifatida o‘rganilmaganligi ochib berilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Tadqiqot jarayonining uslublari va uning tashkil qilinishi”** deb nomlanib, unda ilmiy-uslubiy adabiyotlarning nazariy tahlili, parasuzuvchilarning funksional tasnifini aniqlash, pedagogik kuzatuv, pedagogik nazorat, pedagogik nazorat tekshiruvlar, antropometrik o‘lchovlar, jismoniy holatni baholash, pedagogik tajriba, matematik statistika kabi usullardan foydalanganligi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Suzish bo‘yicha jarohatlanish darajalarining barcha belgilari S harfi bilan boshlanadi (inglizcha “suzish” so‘zining birinchi harfi - suzish). “S” belgisi erkin usulda, chalqancha usulda va batterflyay usulida suzish bo‘yicha funksional sinflarga tegishli. “SB” belgisi brass usulida suzish bo‘yicha sinflarga tegishli.

“SM” belgisi kombinatsiyalangan suzish bo‘yicha sinflarga tegishli.

1 dan 10 gacha raqamlar tayanch-harakat tizimi jarohatlangan sportchilarda, miya falaj mavjud sportchilarda, shuningdek, boshqa nevrologik va tayanch-harakat kasalliklarida maksimaldan (S1, SB1, SM1) minimalgacha (S/SM10, SB9, SM10) buzilish darajasini ko‘rsatadi.

11 dan 13 gacha bo‘lgan raqamlar ko‘rish qobiliyati buzilgan sportchilarda maksimal (S11) dan minimal (S13) gacha bo‘lgan buzilish darajasini ko‘rsatadi.

Intellectual nuqsonlari bo‘lgan sportchilar bir sinfga birlashtirilgan - 14 (S14, SB14, SM14).

Shuningdek, pedagogik tadqiqotning 3 ta bosqichda tashkil qilinganligi ko‘rsatib o‘tilgan:

I bosqich, tahliliy-izlanish, 2022-2023-yillar davomida olib borildi. Mazkur bosqichda dissertatsiya ishining asosiy tushunchalari belgilab olindi, ishchi gipoteza shakllantirildi. Izlanish mavzusi bo‘yicha psixologik-pedagogik ma’lumotlarni o‘rganish, umumlashtirish va tizimlash amalga oshirildi. Mahalliy va xorijiy manbaalarda muammoning o‘rganilganlik va ishlanganlik darajasi aniqlandi. Respublika musobaqalarida sportchilarning ishtiroki tahlil qilindi.


Bu bosqichda foydalanilgan tadqiqot uslublari: nazariy tahlil, qiyoslash, tajribani umumlashtirish, kuzatuv, so‘rovnomma (test, anketa so‘rovi, suhbat), hujjatlar bilan ishlash, modellashtirish.

II bosqich (2023-2024-yillar), Toshkent shahar Olmazor tumanidagi sport maktabi, Nukus shahar suv sporti turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi, Nukus Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi va Urganch Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida shug‘ullanuvchi “S”-9 bilan belgilangan toifa batterflyay, chalqancha, ko‘krakda krolva erkin usullarida suzadi “SM”-9 bilan belgilangan toifa esa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadi va “S”-10 bilan belgilangan toifa batterflyay, chalqancha, ko‘krakda krolva erkin usullarida suzadi “SM”-10 bilan belgilangan toifa esa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadigan parasuzuvchilar tayyorgarlik jarayoni tahlil qilindi, ishlab chiqilgan dastur hamda maxsus zarbdor va tortuvchi mikrosikllar olti oy davomida tayyorgarlik jarayoniga tadbqiq qilindi.

III bosqich (2024-2025-yillar) – asosiy tajriba. Tanlab olingan parasuzuvchilar tayyorgarligi samaradorligini tajribadan oldingi va keyingi jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari hamda tavsiya qilingin dasturning sport natijalariga ta’siri qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalar matematik-statistik usulblar yordamida asoslandi, xulosa va amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Parasuzuvchilar ko‘p yillik tayyorgarligining o‘ziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan. Ko‘p yillik tayyorgarlik tizimi sportchi sport mahoratini oshirish jarayonining uzluksizligini, shug‘ullanuvchilar sog‘lig‘ini mustahkamlash vazifasini hal qilish ustivorligini, funksional imkoniyatlarini oshirishni, organizmning barcha bo‘g‘in va organlarini har tomonlama rivojlantirishni, sport bilan shug‘ullanishga qat’iy qiziqishni tarbiyalashni, mehnatsevarlikni, umumiy va maxsus tayyorgarligini har tomonlama ta’minlashni, suzish texnikasini egallashni, jismoniy sifatlar rivojlanishini, yuqori sport mahoratiga erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni jismoniy va

ijtimoiy rehabilitatsiyasini qat'iy ta'minlaydigan qator omillar aniqlandi (3-rasmga qarang).



3-rasm. Parasuzuvchilar sport natijalariga erishishni va sport takomillashuvini asoslovchi ko'rsatkich va omillar.

Sport-sog'lomlashtirish bosqichining asosiy vazifasi yoshidan qat'iy nazar imkon darajasida ko'proq sog'lig'ida nuqsoni bor shaxslarni va nogironlarni muntazam sport bilan shug'ullanish orqali ularning sog'lig'ini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, shaxs sifatida tarbiyalash va jismoniy sifatlarini rivojlantirishga jalb qilishdan iborat (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Sport-sog'lomlashtirish bosqichida mashg'ulotlarning namunaviy dasturi

Bosqich	Davomiy- ligi, hafta	Haftada mashg'ulot- lar soni	Asosiy masofa uzunligi, m		Suzishning umumiy hajmi, m	
			Davr boshida	Davr oxirida	Davr boshida	Davr oxirida
I	4-8	2-4	50	200	200	500-600
II	4-8	3-4	200-300	600-1000	600-700	900-1000
III	Yil davomida	3-5	1000-1200		1800-2200	

Davrning ayrim qismlarida yugurish, eshkak eshish, velosipedda yurish kabi mashg'ulotlar bilan almashtirilishi yoki to'ldirilishi mumkin.

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi shug'ullanuvchilarda birinchi bosqich vazifalariga qo'shimcha dastlabki sport ixtisosligini tanlashni nazarda tutadi.

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichiga 9-yoshga to'lgan yoki funksional imkoniyatlariga qarab, suzish bilan shug'ullanishni xohlaydigan va pediatrik shifokorning yozma ruxsatnomasiga ega bo'lgan umumta'lim maktablari o'quvchilari qabul qilinadi. Bu bosqichda har tomonlama jismoniy rivojlantirish, suzish texnikasi asoslarini egallash, o'quv mashg'ulot bosqichlariga qabul qilinish uchun nazorat me'yorlarini topshirishga qaratilgan jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va tarbiyaviy ishlar amalga oshiriladi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Sport maktablarida boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi parasuzuvchilar o'quv-mashg'ulotlarning namunaviy o'quv rejasi

T/r	Tayyorgarlik bo'limlari	Tayyorgarlik bosqichlari		
		SSG	BTG	
		Butun davr	1-yil	2-3-yil
1	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	160	160	168
2	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	80	80	90
3	Texnik-taktik tayyorgarlik	30	30	82
4	Nazariy tayyorgarlik	2	2	6
5	Psixologik tayyorgarlik	-	-	12
6	Nazorat-ko'chirish sinovlari	2	2	6
7	Tibbiy tekshiruv	2	2	4
Umumiy soatlar soni		276	276	368
Bir haftalik yuklama		6	6	8

Sport-sog'lomlashtirish bosqichi va boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi, shug'ullanishning birinchi yilida shug'ullanuvchi parasuzuvchilar yil davomida 276 soatlik mashg'ulotlarga jalb qilinsa boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi, shug'ullanishning 2-3 yilida shug'ullanuvchi parasuzuvchilar yil davomida 368 soatlik mashg'ulotlarga jalb qilinadi. Har bir bosqichda shug'ullanuvchi parasuzuvchilar tayyorgarlik darajasidan qat'iy nazar bir yilda kamida ikki marta majburiy tibbiy ko'rikdan o'tadi.

Tadqiqotimizda boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi o'rgatishning 2-yilida shug'ullanuvchi S-9 va S-10 toifasidagi parasuzuvchilar mashg'ulotlariga shug'ullanuvchilar suzish texnikasini va jismoniy sifatlarini takomillashtirishga biz tomonimizdan ishlab chiqilgan zarbdor va tortuvchi turdagi mikrosikllarda mashqlar majmuasini kiritdik. Majmuada seriyalar orasidagi dam olish vaqti va mashqni bajarish shiddat zonalarini belgilab berdik (3-jadval).

3-jadval

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi S-9 va S-10 toifasidagi

parasuzuvchilar uchun namunaviy zarbdor mikrosikl

Mashqlar	Zona	Mashqlar	Zona
Dushanba 400 razminka 2x400 int. 40-60 s. 12x50 int. 30-40 s. Traenirovkada jami – 1800 m	I II III	Payshanba 400 razminka 6x50 oyoqda, int. 30-40 s. 8x100 int. 30-40 s. 200 erkun 4x25 maksimal tezlikda Traenirovkada jami – 1800 m	I II III I V
Seshanba 400 razminka (75 e/u+25 ch/u) 4x50 oyoqda, int. 20-30 s. 5x100 qo‘lda (maxsus moslama bilan), int. 30-40 s. 200 erkin 400 texnika uchun mashq 6x50 int. 30-40 s. 200 erkin Traenirovkada jami – 2200 m	I II III I II IV I	Juma 400 razminka 4x100 oyoqda+qo‘lda, int. 30 s. 5x200 int. 40-60 s. 8x50 int. 20-30 s. Traenirovkada jami – 2200 m	I II II II
		Haftada jami –6000 m: I – 2200, II – 3500, III – 1900, IV – 300, V – 100	

Tayyorgarlik davrining barcha mikrosikllariga beshta shiddat zonasidagi mashqlarning ma’lum qismini qo‘shish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mikrosikllarga qo‘yiladigan vazifalar har xilligini inobatga olib yuklamalar nisbatini keng miqyosda tayyorgarlik davri va mikrosikllar fazasiga (ishchi yoki tiklovchi) bog‘liq holda o‘zgartirish mumkin.

Tajribamiz boshida va oxirida sinaluvchilarning maxsus tayyorgarligi holatini, yani qadam uzunligi, 25 m, 50 m va 100 m masofani erkin usulda suzish testlari orqali uslub samaradorligini aniqlash maqsadida tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlil qildik (4-jadvalga qarang).

Biz tomonimizdan “S”-9 bilan belgilangan toifa batterflyay, chalqancha krol va erkin usullarida suzadi, “SM”-9 bilan belgilangan toifa esa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadi va “S”-10 bilan belgilangan toifa batterflyay, chalqancha krol va erkin usullarida suzadi, “SM”-10 bilan belgilangan toifa esa kompleks usulda individual musobaqalarda ishtirok etadigan parasuzuvchilar boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichiga 6 oy davomida tavsiya qilingan tayyorgarlik mikrosikli mashqlari shug‘ullanuvchilar sport natijalarining sezilarli o‘shiga olib keldi. S-9 toifasidagi parasuzuvchilarning masofada qadam uzunligi 2,42 m dan 2,58 m ga, 25 m ga suzish ko‘rsatkichi 21,43 soniyadan 18,62 soniyaga, 50 m ga suzish ko‘rsatkichi 44,26 soniyadan 41,28 soniyaga, 100 m ga suzish ko‘rsatkichi 1:28,74 soniyadan 1:22,49 soniyaga yaxshilangan bo‘lsa S-10 toifasidagi parasuzuvchilarning masofadagi qadam uzunligi 2,46 m dan 2,79 m ga 25 m ga suzish ko‘rsatkichi 21,12 soniyadan 18,58 soniyaga 50 m ga suzish ko‘rsatkichi 43,08 soniyadan 38,21 soniyaga, 100 m ga suzish ko‘rsatkichi 1:26,53 soniyadan 1:18,41 soniyaga yaxshilandi.

4-jadval

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi S/SM9 va S/SM10 toifasidagi sinaluvchilarning tajribadan oldingi va keyingi natijalari

Masofa va usul	S9 toifasi (n=5)			
	TO	TK	t	p
Qadam uzunligi (metr)	2,42±0,25	2,58±0,26	2,23	p<0.05
25 m erkin usulda suzish (s.)	21,43±0,45	18,62±0,58	3,83	p<0.001
50 m erkin usulda suzish (s.)	44,26±0,38	41,28±1,17	3,24	p<0.05
100 m erkin usulda suzish (daq., s.)	1.28,74±1,20	1.22,49±1,15	3,76	p<0.001
Masofa va usul	S10 toifasi (n=6)			
	TO	TK	t	p
Qadam uzunligi (metr)	2,46±0,27	2,79±0,28	2.31	p<0.05
25 m erkin usulda suzish (s.)	21,12±0,86	18,58±0.72	2,75	p<0.001
50 m erkin usulda suzish (s.)	43,08±1,26	38,21±1,22	2,78	p<0.001
100 m erkin usulda suzish (daq., s.)	1.26,53±0,97	1.18,41±1,15	5,40	p<0.001

O'quv-mashq bosqichi birinchi va ikkinchi bosqich vazifalariga qo'shimcha parasuzuvchilar individual xususiyatlarini va dastur talablarini hisobga olgan holda sport natijalarining o'sishiga olib keluvchi jismoniy tayyorgarligini oshirish, zarurat bo'lganda iqtidorli sportchi-nogironlarni kelajakda O'zbekiston Milliy terma jamoasi safida xalqaro musobaqalarda ishtirok etishiga olib keluvchi va doimiy yuqori natijalarga erishishi uchun ixtisoslashgan sport tayyorgarligiga jalb qilish vazifasi qo'yiladi.

5-jadval

O'quv-mashq bosqichida tayyorgarlik davri yuklamalarining taqsimlanishi

№	Tayyorgarlik turlari	O'quv-mashq bosqichi			
		1-yil	2-yil	3-yil	3 yildan ortiq
1	Umumiy jismoniy tayyorgarlik (soat)	190	230	250	280
2	Maxsus jismoniy tayyorgarlik (soat)	128	150	240	260
3	Texnik-taktik tayyorgarlik (soat)	180	190	230	262
4	Nazariy tayyorgarlik (soat)	12	14	18	18
5	Psixologik tayyorgarlik (soat)	14	18	24	24
6	Nazorat-o'tkazish sinovlari (soat)	8	16	18	18
7	Nazorat musobaqalari (soat)	6	10	14	22
8	Yo'riqchilik va hakamlik amaliyoti (soat)	4	4	8	10
9	Musobaqalarda ishtirok etish (soat)	Ommaviy sport tadbirlarining taqvim rejasi bo'yicha			
10	Tiklanish tadbirlari (soat)	8	8	20	30
11	Tibbiy tekshiruv (soat)	4	4	6	6
Umumiy yuklama (soat)		552	644	828	920
Bir haftalik yuklama (soat)		12	14	18	20

Amaldagi dasturga asosan har xil o'quv guruhlaridagi haftalik o'quv-mashg'ulot ishlari yuklamasi 46 haftalik mashg'ulotlarni sport maktabi sharoitlarida o'tkazish nazarda tutilgan. Dasturda tayyorgarlik turlari va ularning nisbatlari batafsil yoritilgan (5-jadvalga qarang).

O'quv-mashq bosqichida S-9 va S-10 toifasidagi parasuzuvchilar tayyorgarligini yaxshilash va ularning sport natijalarini oshirish maqsadida quyidagi mashqlar majmuasini (haftalik mikrosikl) tayyorgarlik davri mashg'ulot jarayoniga tadbiiq qildik (6-jadvalga qarang).

6-jadval

S-9 va S-10 toifasidagi parasuzuvchilar uchun haftalik mikrosikl yuklamasi

Mashqlar	Zona	Mashqlar	Zona
Dushanba		Payshanba	
500 razminka	I	500 razminka	I
10x50 oyoqda, int. 30-40 s.	II	10x50 qo'lda (maxsus moslama bilan), int. 30-40 s.	II
200 texnika uchun mashq	I	200 texnika uchun mashq	I
18x50 int. 20-30 s.	III	12x100 int. 30-40 s.	III
200 erkin	I	10x50 oyoqda, int. 30-40 s.	I
600=300+200+100	II	200 texnika uchun mashq	I
Mashg'ulotda jami – 2900 m		4x25 maksimal tezlikda	V
		Mashg'ulotda jami – 3500 m	
Seshanba		Juma	
3x200 texnika uchun mashq	I	400 razminka	I
12x50 int. 30 s.	II	4x100 oyoqda + qo'lda, int. 30 s.	I
5x100 qo'lda (maxsus moslama bilan), int. 30-40 s.	II	6x200 int. 40-60 s.	II
300 texnika uchun mashq	I	100 erkin	I
4x50 int. 30-40 s.	IV	200 texnika uchun mashq	I
600=300+200+100	I	8x50 (2x4x50), int. 20 s, dam olish 3 daq.	IV
4x25 maksimal tezlikda	V	800=(400+200+2x100)	I
200 erkin	I	Mashg'ulotda jami – 3500 m	
Mashg'ulotda jami – 3100 m			
Chorshanba		Shanba	
400 razminka (75 e/u + 25 ch/ u)	I	3x200 texnika uchun mashq	I
6x50 oyoqda, int.20-30 s.	II	12x50 int. 30 s.	II
8x100 qo'lda (maxsus moslama bilan), int. 30-40 s.	III	5x100 qo'lda (maxsus moslama bilan), int. 30-40 s.	II
600 erkin	I	200 texnika uchun mashq	I
400 texnika uchun mashq	II	4x50 int. 30-40 s.	IV
